

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'рни va ahamiyati	6
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlar vertikal tabaqalanishini matematik modellashtirish.....	15
Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov Ekoturizm resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida)	22
T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, K.O.Daljanov Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	30
O.T.Mirzamahmudov Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari	36
O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri	41
G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev Xavfli meteorologik hodisalarning takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish	54
R.Y.Xoliqov Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'rtasidagi geokimyoviy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash	68
D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlarini.....	81
K.M.Xakimov Antroponimik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida	87
Y.B.Raxmatov Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari	93
R.T.Pirnazarov Shohimardonsoy havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari	96
P.R.Qurbonov Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlarini.....	103
H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi.....	113
Z.X.Madaminov Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish	118
E.G'.Mahkamov Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari	122
Z.A.Temirov Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
M.M.Avezov, A.M.Elmurotova Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiy tabiiy geografik tavsif	135
M.R.Usmanov O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

**MEHNAT RESURSLARI VA IQTISODIYOT TARMOQLARI RIVOJLANISHI
O'RTASIDAGI HUDUDIY MUAMMOLARNI GEOGRAFIK O'RGANISH (Andijon viloyati
misolida)**

**ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ МЕЖДУ
ТРУДОВЫМИ РЕСУРСАМИ И РАЗВИТИЕМ ОТРАСЛЯМИ ЭКОНОМИКИ
(На примере Андижанской области)**

**GEOGRAPHICAL STUDY OF REGIONAL PROBLEMS BETWEEN LABOR
RESOURCES AND DEVELOPMENT OF ECONOMIC SECTORS (on the example of the
Andijan region)**

Temirov Zokirjon Abdilvoxidovich¹

¹Andijon davlat universiteti, geografiya kafedrası v.b. dotsenti, g.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Aholi sonining tez sur'atlarda o'sib borishi mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholi bandligini oshirish hamda aholi turmush tarzini yuksaltirib borish kabi muammolarni yanada murakkablashuviga olib keladi. Mazkur muammolarni bartaraf etsihda hududlarni tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy geografik, demografik salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiyot tarmoqlarini hududiy rejalashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida «**Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 - 1,6 baravarga oshirish**» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan [2]. Bu borada hududlardagi mavjud demografik salohiyati hamda mehnat resurslari imkoniyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiyot tarmoqlarini hududiy rejalashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Andijon viloyatida mehnat resurslarining hududiy joylashuvi va iqtisodiyot tarmoqlarida bandligi hamda iqtisodiyotni hududiy rejalashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan hulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Olib borilgan tadqiqot ishida Andijon viloyati mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi bandligi va undagi o'zgarishlar, uning hududiy tafovutlari tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tahlillar yuzasidan muhim xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda olingan asosiy xulosa va tavsiyalardan Andijon viloyati aholi bandligi va iqtisodiyot tarmoqlarini rejalashtirish hamda rivojlanishidagi hududiy tafovutlarini kamaytirish hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация

Быстрый рост численности приводит к более сложным проблемам, таким как эффективное использование трудовых ресурсов, повышение занятости населения, улучшение образа жизни населения. Важное значение в преодолении этих проблем имеет эффективное использование природного, экономико-социального географического, демографического потенциала территорий, территориальное планирование отраслей экономики. В Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи «увеличению территориальной экономики в 1,4-1,6 раза за счет пропорционального развития территорий» [2]. В этой связи важное значение приобретают научные исследования, направленные на территориальное планирование отраслей экономики с учетом имеющегося демографического потенциала регионов и возможностей трудовых ресурсов.

Целью данного исследования является выработка научно обоснованных выводов о территориальном размещении и занятости трудовых ресурсов в отраслях экономики Андижанской области, а также о территориальном планировании экономики.

В статье использованы географическое сравнение, системно-структурный, территориальный анализ, исторический, статистико-математический и другие методы.

В проведенной исследовательской работе проанализирована занятость трудовых ресурсов Андижанской области в отраслях экономики и изменения в ней, ее территориальные различия. На основе проведенного анализа были разработаны важные выводы, предложения и рекомендации.

Важное значение имеют основные выводы и рекомендаций, полученные в ходе исследования, служащий для разработки программ по сокращению территориальных различий в планировании и развитии занятости населения и отраслей экономики, а также для улучшения территориальной структуры Андижанской области.

Abstract

Rapid growth of the population leads to further complexity of problems such as effective use of labor resources, increase of employment of the population and improvement of the lifestyle of the population. In order to eliminate these problems, effective use of the natural, economic-social geographical and demographic potential of the regions, territorial planning of economic sectors is important. In the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026, «In the proportional development of the regions, important tasks for increasing the regional economy by 1.4 - 1.6 times have been defined [2]. In this regard, scientific researches aimed at territorial planning of economic sectors, taking into account the existing demographic potential of the regions and the possibilities of labor resources, are of great importance.

The purpose of this research is to develop scientifically based conclusions on the territorial location of labor resources and employment in economic sectors in Andijan region, as well as regional planning of the economy.

Geographical comparison, system-content, regional analysis, historical, statistical-mathematical and other methods were used in the article.

In the conducted research work, the employment of labor resources of Andijan region in economic sectors and its changes, its territorial differences were analyzed. Important conclusions, suggestions and recommendations have been developed regarding the implemented analyzes.

From the main conclusions and recommendations obtained in the research, Andijan region is of great importance as it serves to reduce regional differences in the planning and development of population employment and economic sectors, as well as to develop programs for improving the territorial structure.

Kalit so'zlar: mehnat resurslari, aholi bandligi, iqtisodiy faol aholi, iqtisodiyot tarmoqlari, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy sohalar, nomoddiy ishlab chiqarish.

Ключевые слова: трудовые ресурсы, занятость населения, экономически активное население, отрасли экономики, промышленность, сельское хозяйство, социальная сфера, нематериальное производство.

Key words: labor resources, population employment, economically active population, economic sectors, industry, agriculture, social spheres, intangible production.

KIRISH

Mintaqalarni barqaror iqtisodiy rivojlanishida hududlarning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik salohiyatidan oqilona foydalangan holda iqtisodiyot tarmoqlarini hududiy joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Andijon - O'zbekistonning tabiiy resurslar bilan yetarlicha ta'minlanmagan, yer resurslari cheklangan, o'ziga xos demografik salohiyatga va yuqori aholi zichligiga ega viloyati hisoblanadi. Viloyatda mehnat resurslarining shakllanishi, ularni iqtisodiyot tarmoqlarida taqsimlanishini takomillashtirish va kelajakda kutiladigan demografik vaziyatni hisobga olgan holda iqtisodiyotni hududiy rejalashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Mazkur tadqiqot ishi o'z oldiga Andijon viloyati iqtisodiyot tarmoqlaridagi o'zgarishlar va uning hududiy jihatlarini iqtisodiy geografik jihatdan baholash, mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlarini hududiy rejalashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasini qo'ygan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Iqtisodiyot tarmoqlari hamda ularning hududiy va tarmoq tarkibini takomillashtirish masalalari bo'yicha O'zbekiston, yaqin xorijiy va chet el olimlari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan va keng miqyosda o'rganilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan F.Perru, I.Tyunen, V.Kristaller, A.Veber, B.Lundval, G.Myurdal, U.Ayzard; MDHda N.N.Kolosovskiy, Yu.G.Saushkin, V.V.Kistanov, E.B.Alaev, I.M.Maergoyz, A.I.Chistobaev, M.D.Sharigin, B.S.Jixarevich, A.T.Xrushev, A.G.Granberg, K.I.Ivanov, N.N.Nekrasov, R.A.Popov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida sanoat taraqqiyoti, unga xos tafovutlar, sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish va rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarining hududiy shakllanishi va rivojlanishi, unga xos muammolar bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalari Z.M.Akramov, Q.N.Abirqulov, O.B.Ata-Mirzaev, A.A.Qayumov, A.S.Soliev, M.A.Abdusalyamov, A.N.Ro'ziev, A.M.Sodiqov, F.T.Egamberdiev, H.P.Abulqosimov, O.Abdullaev, A.T.Yusupov, Sh.Azimov, L.Karshiboeva, H.A.Abdunazarov, A.G.Abdullaev va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy ishlarida Andijon viloyatida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va iqtisodiyot tarmoqlarini hududiy rejalashtirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

Mazkur tadqiqot ishida geografik taqqoslash, tizim-tarkib, hududiy tahlil, tarixiy, statistik-matematik va boshqa metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aholi iqtisodiyot sohalarini va tarmoqlari miqyosida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi natijasida mehnatning ijtimoiy taqsimoti va kooperatsiyasiga jalb etiladi, ishlab chiqarish bilan uyg'unlashadi, uning ayrim qismlarida ma'lum vaqt doirasida joylashadi hamda mehnat qiladi.

Hozirgi paytda sanoatni, ayniqsa uning zamonaviy tarmoqlari-avtomobilsozlik, elektrotexnika, yengil va oziq-ovqat sanoati hamda qo'l mehnatini ko'p talab qiluvchi tarmoqlarni, ijtimoiy infrastruktura sohalarini jadal sur'atlarda rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlar qilinmoqda. Bunda asosiy e'tibor nodavlat sektori rolini ko'tarishga qaratilayotganligi ayni muddao hisoblanadi.

Ma'lumki, mustaqillikkacha bo'lgan davrda jami band aholining katta qismi (3/4) moddiy ishlab chiqarishda, qolgan (1/4) qismigina noishlab chiqarish sohasida to'plangan edi.

Xom ashyo yetkazib berishga mo'ljallangan siyosatning mahsulini shunda ko'rish mumkinki, mehnat resurslarining deyarli 40 foizga yaqini aynan qishloq xo'jaligi bilan mashg'ul edi. Masalan, Andijon viloyatida ushbu ko'rsatkich 1980-1991-yillar mobaynida 51,3-57,7 foizni tashkil etgan. Ayrim tumanlarda esa bundan ham yuqori bo'lgan.

Industrial tarmoqlarni ustuvor rivojlantirish bo'yicha mamlakatda olib borilayotgan islohotlar ta'sirida qishloq xo'jaligida mehnat resurslari salmog'i kamaydi. Ularning bir qismi ijtimoiy infrastruktura tizimiga jalb etildi. Shuning uchun savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy-texnika ta'minoti, savdo va tayyorlovda mehnat resurslarining ulushi sezilarli darajada oshdi. Ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish sohaslarining ham hissasi yuqori bo'lib kelmoqda. Jumladan, Andijon viloyatida band aholining 26,5 foizi qishloq xo'jaligida, 14,4 foizi sanoatda, 12,6 foizi savdoda, 7,6 foizi qurilish tarmoqlarida, 7,9 foizi ta'lim sohasida band. Lekin viloyat tuman va shaharlarida ushbu ko'rsatkichlar hududiy tafovutlarga ega.

Andijon viloyatida yer va suv resurslari qat'iy cheklanganligini, demografik sig'im va ekologik muhitning o'ziga xosligini hisobga olgan holda mehnat resurslarini qishloq xo'jaligida kamaytirish, industrial korxonalarini ko'proq qurish hisobiga sanoatga, birinchi navbatda avtomobilsozlikka yoki xizmat ko'rsatish sohaslariga ko'proq jalb etish maqsadga muvofiq.

Andijon viloyatida 1754,7 ming mehnat resurslari mavjud bo'lib, ular jami aholining 52,8 foizini tashkil etadi. Shulardan 1403,9 ming nafari iqtisodiy faol, 351,7 ming nafari esa iqtisodiy nafaol aholidan iborat bo'lib, iqtisodiyotda band bo'lganlar 1355,5 kishi, bandlik darajasi 79,9 foizga teng. Ishsizlik darajasi 9,9 foizni tashkil etadi.

Viloyat iqtisodiyot tarmoqlarida bandlik darajasi keying yillarda qishloq va o'rmon xo'jaligida band aholi 26,5 foiz holatida saqlanib qoldi. Sanoatda bandlik darajasi bir oz o'sgan, ya'ni 14,4 foizga ko'tarilgan.

Nomoddiy ishlab chiqarish sohalari hissasining kamayishi, va aksincha, moddiy ishlab chiqarish sohaslarining hissasi ortib borishi kuzatildi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, viloyatda yaratilayotgan YAIM ning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga 41,3 foizi va 29,0 foizi sanoatga to'g'ri kelmoqda. Mazkur ko'rsatkich keyingi yillarda qishloq xo'jaligining salmog'ini kamayib, sanoatning YAIM dagi hissasi ortib borishini alohida ta'kidlash lozim (1-jadval). Shuningdek, xizmatlar sohasida band aholi salmog'i 24,5 foizni tashkil etgani holda, YAIMning qariyb 30 foizi mazkur tarmoqqa to'g'ri kelmoqda hamda mazkur tarmoqning xissasi kamayib borishini kuzatish mumkin.

1-jadval

Andijon viloyati yalpi ichki mahsulotning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi

	2010	2015	2020 y.	2021 y.	2022 y
YaHM, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	45,6	47,0	42,7	43,3	41,3
Sanoat	21,5	20,4	28,5	25,9	29,0
Xizmatlar	32,9	32,6	28,8	30,8	29,7

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Andijon viloyati tuman va shaharlarida iqtisodiyot tarmoqlarining ulishi va o'sish suratlari hududiy tafovutlar seziladi. Jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda Asaka, Qo'rg'ontepa, Shahrixon, Marxamat, Baliqchi va Paxtaobod tumanlarining xissasi katta. Mazkur tumanlarda unumdor tuproqlarning mavjudligi, suv resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining kattaligi, yuqori malakaga ega mehnat resurslarining shakllanganligi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Boston, Ulug'nor, Buloqboshi va Ho'jaobod tumanlarining salmog'i kamligini aytib o'tish joiz. Bunda, Ulug'nor, Bo'ston tumanlarida tabiiy iqlimiy sharoitning noqulayligi asosiy omil sifatida qaralsa, Buloqboshi va Ho'jaobod tumanlarining maydonining nisbatan kichikligi va tog' oldi va tog'li hududlar katta maydonlarni egallaganligi muhim ro'l o'ynaydi.

Andijon viloyati iqtisodiyoti rivojlanishida sanoat muhim ahamiyatga ega. Viloyat sanoat ishlab chiqarish salmog'i bo'yicha Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridan keying

to'rtinchi o'rinni egallaydi. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining qariyb 10 foizi Andijon viloyatiga to'g'ri keladi. Sanoatni rivojlanishida energetika sanoati muhim rol o'ynaydi. Viloyatda energetika sanoati sust rivojlangan tarmoq hisoblanadi. Shuningdek, viloyat mamlakatda energiya istemoli bo'yicha ham so'nggi o'rinlarni egallaydi. Viloyatning sanoat salohiyati va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda energetika sanoatini rivojlantirish ustivor ahamiyatga ega. Andijon viloyati mamlakatda avtomobil sanoati markazi hisoblanadi. Viloyatda sanoat ishlab chiqarishning asosiy qismi mazkur tarmoqqa to'g'ri keladi (2-jadval).

2-jadval

Andijon viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (mlrd so'm)

	2010	2015	2020	2021	2022
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	4 701,4	9 744,6	36 376,5	35 935,3	54 122,0
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	24,2	76,7	115,3	177,6	292,8
Ishlab chiqaradigan sanoat	4 577,9	9 296,6	35 650,2	35 065,5	52 903,1
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	325,5	1 203,7	2 761,6	2 571,9	3 308,7
Ichimliklar ishlab chiqarish	9,5	50,7	31,2	16,6	23,9
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	358,8	1 359,6	3 262,3	5 210,4	6 175,1
Kiyim ishlab chiqarish	69,0	216,7	2 215,0	3 726,9	5 745,1
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	67,7	245,2	583,3	570,9	637,6
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	28,8	97,6	12,4	27,1	37,2
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	1,9	5,7	23,8	31,5	36,3
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,5	5,2	3,2	4,7	6,6
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,1	7,7	10,6	15,3
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	77,6	179,6	513,7	314,0	425,2
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	0,3	0,9	54,9	98,2	37,4
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	7,8	29,0	245,3	256,1	343,9
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	33,9	100,3	442,6	523,6	852,1
Metallurgiya sanoati	6,5	4,0	65,6	117,3	90,4
Mashina va uskunalar tashqari tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	18,0	54,6	602,8	311,9	305,1
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	14,6	35,9	3,1	1,7	1,6
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	112,7	174,2	522,8	550,8	568,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	8,7	28,2	469,6	419,1	357,7

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3 342,0	5 192,4	23 293,9	19 717,8	33 264,2
Boshqa transport uchkunlari ishlab chiqarish	14,6	39,9	192,3	205,3	211,1
Mebel ishlab chiqarish	31,2	119,8	234,8	233,6	290,0
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	10,4	33,6	103,1	132,0	141,0
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	36,8	119,8	5,4	13,6	29,5
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	92,6	352,6	528,3	568,8	802,3
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	6,8	18,7	82,7	123,4	123,8

Jadval www.andstat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, viloyat sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 63 foizi avtomobilsozlik sanoatiga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda to'qimachilik, kiyim kechak va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlari tashkil etmoqda. Sanoatning boshqa tarmoqlarining ulushi u qadar katta emas.

Ijtimoiy sohalarni rivojlanishi bevosita aholi ehtiyojlariga, manfaatlariga xizmat qiladi. Zero, ijtimoiy sohalar aholiga ehtiyojlariga xizmat qilar ekan, ijtimoiy geografik tadqiqotlarda aholining o'sishi, joylanishi, milliy va yosh tarkibini tahlil etish, mehnat resurslaridan foydalanish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ma'lumki, aholi ma'lum bir hududda yashovchi kishilar birligi, jamoasidan iborat. Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik bo'lgan dolzarb masalalarni tadqiq etishda aholi va aholi joylashuvini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi va ishlab chiqarishning joylashuvi bir-biri bilan aloqador bo'lib, hududlar iqtisodiyotiga, ishlab chiqarish aholining hududiy tashkil etilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hozirda Andijon viloyatini demografik holati bo'yicha O'zbekistonning o'ziga xos bo'lgan geodemografik rayon sifatida qarash mumkin. Uning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari ko'p jihatdan aholining yuqori tabiiy o'sishi, tarkibi va hududiy joylashuvi bilan izohlanadi.

Ijtimoiy sohalarni hududiy tashkil etish va rivojlantirishning geografik jihatlarini tadqiq qilishda aholining yosh va milliy tarkibini tahlil qilish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, mazkur jarayonlar demografik vaziyatning, o'z navbatida infrastruktura tizimini hududiy tashkil etishning kelajakdagi holatini bashorat qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, O'zbekiston qishloq aholisi tarkibida bolalar va o'smirlarning ulushi doimo yuqori bo'lib kelgan. Ayniqsa, axoli zich yashaydigan hududlarda bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, Andijon viloyati qishloq joylari aholi yosh tarkibi bo'yicha boshqa viloyatlardan keskin farq qilmasada, ularning mutlaq ko'pligi bilan tavsiflanadi. Masalan, 2020-yilda viloyatda 18 yoshgacha bo'lgan aholi jami aholining deyarli 34 foizini o'zida qamrab oladi. 18-30 yoshgacha bo'lgan aholi 20 foizga, 30 yoshdan yuqori bo'lgan aholining ulushi esa 46 foizga teng. Ko'rinib turibdiki, bunday vaziyat qishloq joylarda ayrim ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi va ularning ijobiy hal etilishi ko'p jihatdan ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish sohalarini tizimining hududiy tarkibini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq. Chunonchi, joylarda pediatriyani rivojlantirish, maktabgacha va umumiy ta'lim tizimini yanada yaxshilash yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni yechishda katta yordam beradi.

Viloyat tumanlarida mayatniksimon migratsiya yaqqol ko'zga tashlanadi. O'qish, ishlash uchun aholining bir joydan ikkinchi bir joyga harakati ko'proq kuzatiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, migratsiya aholining yosh va jins tarkibiga ko'proq ta'sir etadi; hududlarda mehnat resurslarining haddan tashqari ortiqchaligi yoki ularning yetishmasligi kabi qator muammolar vujudga keladi. Bunday vaziyat hududlarning demografik holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Migratsion faollik asosan qishloq yoshlariga xos bo'lib, ularning o'rtacha yoshi 19-24 yoshni tashkil etadi, u asosan, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi va Qozog'iston davlatlariga yo'nalgan.

Ijtimoiy sohalarning rivojlanishi o'z navbatida mehnat resurslaridan foydalanishga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham, ijtimoiy infrastrukturaning hududiy tarkibini takomillashtirishda

mehnat resurslari soni, tarkibi, ulardan foydalanish, bandlik darajalari kabilarga urg'u beriladi. Bu masalalarni o'rganish orqali infrastruktura sohasida mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday fikrlarni bildirib o'tishni joiz, deb bilamiz. Andijon viloyatida urbanizatsiya jarayonining sekin rivojlanayotganligi uning yirik agrar hudud ekanligidan dalolat beradi. Viloyat aholisining 56 foizga yaqinini mehnatga layoqatli kishilar tashkil etadi. Ularning qariyb 75 foizi iqtisodiy faol hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq joylarda ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok etishi zarur bo'lgan mehnat resurslarining katta zahirasi mavjud. Ishchi o'rinlar, ularning kengayishi, shu bilan birga mehnat resurslarining ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishni ta'minlovchi infrastruktura tizimining rivojlanishi darajasi aholi o'sish sur'atlaridan ortda qolayotganligini hisobga olsak, bu ijtimoiy-iqtisodiy muammolar qanchalik dolzarbligini ko'rish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan shuni ko'rish mumkinki, bu guruhga kiruvchi davlatlarda band aholining 70-85 foizi bevosita servis sohasida xizmat qiladi. Shuning uchun ham Andijon viloyatida isloxlarni bevosita xizmat ko'rsatish soxasi, infrastruktura geografiyasiga bog'liq holda o'rganish kelajakda viloyatda ishsizlikni oldini olish, aholi bandligini oshirish kabi masalalarni hal etishda juda katta imkoniyat yaratib beradi. Viloyat aholisi sonining hududiga nisbatan, kattaligi, o'z navbatida o'ta zich joylashganligi mehnat resurslari va bandlikka hos muammolar murakkablashuviga olib kelayotgan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Andijon viloyatlarida mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlarida katta o'zgarishlar bo'lib o'tmoqda. Ular quyidagi sohalarda ko'zga tashlanadi:

- qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida band aholi soni va uning ulushi kamayib bormoqda;
- qurilish va ta'lim sohaslarining ham hissasi nisbatan yuqori;
- respublika mehnat resurslarining 13,5 foizi sanoatga to'g'ri keladi, bu ko'rsatkich Andijon viloyatida 14,4 foizni tashkil etadi;
- agrar sohada band aholi hissasiga ko'ra o'rganilayotgan hudud bo'yicha Qo'rg'ontepa, Shahrixon, Baqlichi, Pahtaobod tumanlarida yuqori, Ulug'nor, Bo'ston, Buloqboshi va Xo'jaobod tumanlarida eng past;
- Andijon viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida bandlik darajasi 2010-2020 yillar bo'yicha aytarli o'zgarishlar kuzatilmaydi, ya'ni qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida band aholi 26,5 foiz holatida saqlanib qolgan bo'lsa, sanoatda bandlik darajasi bir oz o'sib 14,4 foizga teng bo'lgan.

XULOSA

Andijon viloyatida aholi bandlik darajasi 70 foizni tashkil etadi. Band aholining eng katta qismi (26,5 foiz) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida band. Sanoatda band aholi 14,4 foizga yetdi. Shuningdek, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida band aholining 4,7 foizi va ta'limga 7,9 foizi to'g'ri keladi. Fikrimizcha, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini oshirish hisobiga sanoatning ulushini yanada oshirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi;

Andijon viloyatida yaratilayotgan YAIMning qariyb 30 foizi xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi va keying yillarda ijtimoiy sohalarni hududiy tashkil etish va rivojlantirishning geografik jihatlarini tadqiq qilishda aholining yosh va milliy tarkibini tahlil qilish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, mazkur jarayonlar demografik vaziyatning, o'z navbatida infrastruktura tizimini hududiy tashkil etishning kelajakdagi holatini bashorat qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi;

Andijon viloyatida aholi sonining doimiy ko'payib borishi hamda demografik bosimning ortishi, yer va suv resurslarining cheklanganligi industrial korxonalarini ko'proq barpo etish, birinchi navbatda to'qimachilik, oziq-ovqat klasterlarini, shuningdek xizmat ko'rsatish sohasida band etish eng optimal yo'l hisoblanadi. Turli toifadagi sanoat korxonalari o'rtasida ishlab chiqarish kooperatsiyalarini tashkil etish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish aholi bandligini oshirish va turmush tarzini yuksalishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanov xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (<https://lex.uz/docs/5841063>)
3. Солиев А., Қаршибоева Л. Иқтисодий географиянинг назарий ва амалий масалалари. –Т., 1999. –181 б.
4. Солиев А.С., Ахмедов Э.А ва б. Минтақавий иқтисодиёт. –Т.: Университет, 2003. –304 б.
5. Солиев А.С. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт. –Т.: Камалак, 2013. –184 б.

6. Темиров З.А. Ўзбекистоннинг Фарғона минтақасида демографик жараёнлар ривожланишининг ҳудудий хусусиятлари (Монография). –Андижон. “Ҳаёт нашри-2020”, 2022. -158 б.
7. Temirov Z.A. Development of demographic processes in the Fergana region of Uzbekistan: yesterday, today, tomorrow // Journal of geology, geography and geoeology № 4 (31) 2022. –P. 736-748. (doi:10.15421/112269)
8. Қодиров Р.Б. Ўзбекистон Республикаси Фарғона водийси вилоятларида меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш йўллари. География фанлари доктори (DSc)диссертацияси автореферати. Т.: 2021, 20 б.
9. Qodirov R.B., Temirov Z.A. Forecasts and demographic development of the population of Fergana Valley regions of Uzbekistan until 2040 // Journal of geology, geography and geoeology № 3 (30) 2021. –P. 491-499. (doi: 10.15421/112145)
10. www.andstat.uz